

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.15/31.08.2022.T.73.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

BURIYEV SHUHRAT XAMIDOVICH

**YUQORI HARORATLI EKSPLUATATSIYA SHAROITIDA YO‘LNING
ASFALTBETON QOPLAMASI CHIDAMLILIGINI OSHIRISH USULINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.09.02 - “Geotexnika” (Yo‘llar, yo‘llarni raqamlashtirish va yo‘l harakati xavfsizligi.
Yo‘l telematikasi yo‘nalishlari bo‘yicha)**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Buriyev Shuhrat Xamidovich

Yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitida yo‘lning asfaltbeton qoplamasi
chidamliligini oshirish usulini takomillashtirish.....3

Буриев Шухрат Хамидович

Усовершенствование метода повышения долговечности асфальтобетонного
покрытия дороги при высокотемпературных условиях эксплуатации25

Buriev Shuhrat Khamidovich

Improvement of the method of increasing the durability of asphalt concrete road
pavement under high-temperature operating conditions49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.15/31.08.2022.T.73.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

BURIYEV SHUHRAT XAMIDOVICH

**YUQORI HARORATLI EKSPLUATATSIYA SHAROITIDA YO‘LNING
ASFALTBETON QOPLAMASI CHIDAMLILIGINI OSHIRISH USULINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.09.02 - “Geotexnika” (Yo‘llar, yo‘llarni raqamlashtirish va yo‘l harakati xavfsizligi.
Yo‘l telematikasi yo‘nalishlari bo‘yicha)**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/T3183 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sadiqov Ibragim Salihovich

Texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmedov Sherzod Baxodirovich

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD dotsent

Qosimov Ibrohim Irkinovich

Texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.15/31.08.2022.T.73.05 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil "___" ___ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100167, Toshkent, Odilxojayev ko'chasi 1-uy. Tel./faks: (998-71) 277-54-87, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'lichilar ko'chasi 1-uy. Tel./faks: (998-71) 277-54-87, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "___" _____ kuni tarqatilgan.
(2023 yil "___" ___ dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.X.Urokov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

R.M.Xudayqulov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, PhD, professor

M.M. Miralimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi o'rinbosari (raisi), t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda avtomobil yo‘llariga bo‘lgan talab kundan kunga oshib bormoqda. Shu jumladan global iqlimiy muammolar natijasida asfaltbeton qoplamalarining yoz oylarida qoplama harorati 70-80 °C ko‘tarilishi natijasida yo‘llarda plastik deformatsiyalarning hosil bo‘lishiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda transportga bo‘lgan talabning ortib borishi sababli, yirik yo‘l tarmoqlarini shakllantirish 20-asrga xos bo‘lgan bo‘lib, hozirda ushbu mamlakatlarning avtomobil yo‘llarini boshqarish korxonalarini asosiy strategik vazifalarni yangi yo‘l infratuzilmalarini loyihalash va qurishdan mavjud yo‘l tarmoqlari holatini yo‘ldan foydalanuvchilar talablariga muvofiq holda ushlab turish uchun ta‘mirlash va saqlash ishlarini samarali rejalashtirishga o‘zgartirishgan”¹. Bu borada, jumladan, ushbu mamlakatlarning avtomobil yo‘llarini boshqarish tashkilotlari yo‘l tarmoqlarini kengaytirishda asosiy urg‘uni to‘ldiruvchi sifatida qo‘llanilib kelayotgan mineral kukunlar hozirgi kunda faollashtirilib bitum bilan birikib bog‘lovchi hosil qilish ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jahonda avtomobil yo‘llarining xizmat muddatini uzaytirish, xususan avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish jarayonida transport-ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini asfaltbeton qorishmalari tarkibidagi yangi energiya tejamkor qurulish materiallarini ishlab chiqish hamda kam xarajat talab qiladigan faollashgan mineral kukunlarni qo‘llash orqali qoplama mustahkamligini oshirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, avtomobil yo‘llarining yuqori haroratda mustahkamligini oshirishda transport oqimi hamda havo-iqlim omillarining ta‘sirini inobatga olib asfaltbeton qorishmasining tarkibiga mineral kukunlarni qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda.

Respublikamizda xalqaro standartlarga javob beradigan avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish va ularning ekspluatatsiya muddatini uzaytirish imkoniyatini beradigan yangi texnologiyalarni ishlab chiqish hamda amalda qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, “Yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va avtomobil yo‘llari tarmog‘ini jadal rivojlantirish”² bo‘yicha vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, xususan, avtomobil yo‘llaridagi yuqori haroratli ekspluatatsion sharoitda asfaltbeton qoplama mustahkamligini oshirishda mahalliy xomashyodan faollashgan mineral kukun olish texnologiyasini ishlab chiqarish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-5890-son “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xo‘jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, PQ-4545-sonli “Yo‘l sohasini

¹ <https://addi.ehu.es/bitstream/handle/10810/31891/applsci-08-01041.pdf?sequence=1&isAllowed=y>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, PQ-49-sonli “Avtomobil yo‘llari sohasida ochiqlik standartlarini joriy etish va sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II “Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik, transport va asbobsozlik” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat transport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IZ-2020052616 “Asfaltbeton ishlab chiqarishda slanesli tog‘ jinslaridan mineral kukun olish texnologiyasini ishlab chiqish” nomli innovatsion ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy tadqiqotchilar S.Rejardson, M.H. Al-Saed, E.T. Harrigan, L.H. Csanyi, T.A. Al-Qaisi, G.G. Sofiya, xitoylik olimlar Zhenyang Fan, Xuancang Wang*, Zhuo Zhang va Yi, Arab davlatlaridan A.H. Aljassar, S. Metwali, M.A. Ali, Mustaqil hamdo‘stlik davlatlaridan N.V. Gorelshev, G.S.Baxrax, T.G.Rubiyeva, Volkov Bormiy, I.M. Borshch, A.P Korotayev hamda O‘zbekistondan I.S.Sodiqov, A.M.Karabayev, I.E.Qosimov kabi ko‘plab tadqiqotchilar asfaltbeton qorishmalarida ishlatiladigan mineral kukun bo‘yicha keng qamrovli tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Asfaltbeton qorishmalarini tayyorlashda ishlatiladigan mineral kukunlar ohaktosh, dolomit, sanoat chiqindilaridan va boshqa karbonat jinslardan olinadi. Bugungi kunda maydalab, kukunga aylantirish yo‘li bilan olinadigan mineral kukunlar bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan, lekin slanesli tog‘ jinslaridan olingan mineral kukunlar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat transport universitetining “O‘zbekiston Respublikasi tabiiy-iqlim sharoitini hisobga olib, avtomobil yo‘llarining iste‘mol xususiyatlarini yaxshilash metodologiyasi” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitida slanesli tog‘ jinslaridan olingan mineral kukunni qo‘llash orqali asfaltbeton qoplamasining chidamliligini oshirish usulini takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari:

- slanes tog‘ jinsining xususiyatlarini o‘rganish, uning bitum bilan o‘zaro ta‘siri mexanizmi va asfaltbeton qorishmalari tarkibida undan mineral kukun sifatida foydalanish imkoniyatini asoslash;
- slanesli tog‘ jinslaridan olingan faollashgan mineral kukunning xususiyatlarini o‘rganish;
- slanesli tog‘ jinslaridan faol mineral kukun olish texnologiyasini ishlab chiqarish va olingan faollashgan mineral kukunlarning kimyoviy tarkibi hamda donadorlik tarkibini o‘rganish;

– slanesli tog‘ jinslaridan olingan faollashgan mineral kukunni asfaltbeton qorishmasi tarkibidagi inert materiallar bilan bitumni bog‘lanishiga va asfaltbeton qorishmasining fizik-mexanik xususiyatlariga ta‘sirini o‘rganish;

– asfaltbeton qorishmaning siqilishga mustahkamligi va siljishga chidamliligi xossalarini o‘rganish hamda bu orqali qoplamada bo‘ylama g‘ildirak izi, surilishi kelib chiqishini tadqiq qilish;

– asfaltbeton qorishmasi tarkibidagi inert materiallarini bitum bilan o‘zaro ta‘sir mexanizmi va ularning o‘rtasidagi maqbul nisbatlarni ishlab chiqish asosida asfaltbetonning xizmat muddatini oshirish usulini takomillashtirish;

– yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitda xizmat qiladigan asfaltbeton ishlab chiqarish uchun slanesli tog‘ jinslaridan olingan faollashgan mineral kukunni qo‘llanilishini texnik-iqtisodiy asoslash.

Tadqiqotning obyekti avtomobil yo‘llaridagi asfaltbeton qoplamasi.

Tadqiqotning predmeti slanesli tog‘ jinslaridan olingan faollashgan mineral kukun qo‘shilgan asfaltbeton qorishmasi.

Tadqiqotning usullari. Eksperimental ta‘dqiqot, laboratoriya sinovlari, matematik statistika, regression tahlil usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- mineral kukunlarning mikroskop orqali donadorligi va shakli aniqlanib, turli hil donadorlikda asfaltbeton qorishmasiga qo‘shib laboratoriya sinovlari natijasida slanesli tog‘ jinslaridan olingan faollashgan mineral kukun zarralari shakli va maydalik darajasini asfaltbetonning zichligi, siljishga chidamliligi, siqilishga mustahkamligi, suv shimuvchanligi ko‘rsatkichlari o‘zgarishiga bog‘liqligi aniqlangan;

- slanesli tog‘ jinslaridan olingan faollashgan mineral kukun bitum bilan birikib, hosil bo‘lgan bog‘lovchini eksperimental ta‘dqiqotlar natijasida inert tosh materiallari bilan yupqa parda ko‘rinishida bog‘lanishi qoplama yuqori haroratda siqilishga mustahkamligini va surilishga chidamliligini oshirishi aniqlangan.

- slanesli tog‘ jinslaridan olingan faollashgan mineral kukunni qo‘shish bilan, bitumli bog‘lovchi hosil qilinib, asfaltbeton qorishmasining maqbul donadorlik tarkibini tanlash orqali yuqori haroratli ekspluatatsion sharoitda qoplama mustahkamligini oshirish uslubi takomillashtirilgan;

- eksperimental tadqiqotlar natijasida asfaltbeton qorishmaga slanesli tog‘ jinslaridan olingan faollashgan mineral kukunni qo‘llash orqali, mineral kukunni va bog‘lovchi bitum miqdori kamayishi hisobiga yuqori haroratda surilishga chidamliligi va siqilishga mustahkamligini oshirishga olib keladi va bu bilan ekspluatatsion davrda asfaltbeton qoplamadagi plastik g‘ildirak izlarini yuzaga kelmasligi asoslangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- slanesli tog‘ jinslaridan faollashgan mineral kukun olish bo‘yicha texnologik reglament ishlab chiqilgan;

- yuqori haroratli ekspluatatsion sharoitda qoplamada g‘ildirak izlarini kelib chiqishini qorishma surulishga chidamliligi va siqilishga mustahkamligini hisobga olgan holda prognozlash EXM dasturi yaratilgan;

- mayda donali issiq zich asfaltbeton qorishmasiga slanesli tog' jinslaridan olingan faollashgan mineral kukunlarni qo'llash bo'yicha maqbul donadorlik tarkibi va tavsiyalar ishlab chiqarilgan;

- tadqiqot natijalariga ko'ra mayda donali issiq zich asfaltbeton qorishmasini ishlab chiqarishda bog'lovchi bitum 10,3 foiz iqtisod qilinib, 1 224 000 000 so'm hamda mineral kukundan 673 750 000 so'm iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning standartlashgan uslub va zamonaviy hamda yuqori aniqlikdagi raqamlashgan o'lchov vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilganligi, asfaltbeton qorishmasining fizik-mexanik ko'rsatkichlarini o'lchash va ularni tahlil qilish matematik modellashtirish qoidalari asosida amalga oshirilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro mosligi laboratoriya sinovlarida olingan natijalar bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati slanesli tog' jinslaridan olingan faollashgan mineral kukun bitum bilan bitum bog'lovchi hosil qilib, asfaltbetonning fizik-mexanik ko'rsatkichlarini ortishiga olib keladi. Buning natijasida yuqori haroratli ekspluatatsion sharoitda siqilishga mustahkamligi va surilishga chidamliligi ortishiga qoplama mustahkamligini oshirish uslubi takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mayda donali issiq zich asfaltbeton qorishmasiga slanesli tog' jinslaridan olingan faollashgan mineral kukun qo'shilganda zichligi 2.40 g/sm^3 gacha oshadi, suv shimuvchanligi esa ikki barobar kamayadi, natijada qoplamaning $70 \text{ }^\circ\text{C}$ haroratda siqilishga mustahkamligi va surilishga chidamliligi ko'rsatkichlari hozirgi kundagi boshqa mineral kukunlarga qo'llanilgandagiga nisbatan ikki barobar ortishi natijasida yuqori haroratli ekspluatatsion sharoitda qoplama plastik g'ildirak izi kelib chiqishi $70 \text{ }^\circ\text{C}$ haroratida to'rt barobarga kamayishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitida yo'lning asfaltbeton qoplamasini chidamliligini oshirish usulini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

slanesli tog' jinsidan olingan faollashgan mineral kukunni mayda donali issiq zich asfaltbeton qorishmaga qo'llab ishlab chiqarish bo'yicha donadorlik tarkibi ishlab chiqildi hamda asfaltbeton zavodida qorishma tayyorlanib Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli korxonalarda amaliyotga joriy etildi. (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2023-yil 23-maydagi, 03-1427-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, asfaltbeton qoplama o'tkazilgan laboratoriya sinovlarida bitum faolligini oshirib zichligini ortishiga, suv shimuvchanligini ikki barobarga kamayishi kuzatildi;

slanesli tog' jinsidan olingan faol mineral kukun bitum bilan birikib, bitum bog'lovchini hosil qiladi va inert materiallari yuzasini yupqa parda ko'rinishida qoplanadi, avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli korxonalarda amaliyotga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2023-yil 23-maydagi, 03-1427-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, faol mineral kukun qo'llanishi qoplama $70 \text{ }^\circ\text{C}$ haroratda siqilishga mustahkamligi

va surilishga chidamliligi hozirgi kunda qo'llanilayotgan mineral kukunlarga nisbatan ikki barobar ortishiga olib kelgan;

asfaltbeton qorishmasiga slanesli tog' jinslaridan olingan faollashgan mineral kukun qo'llab ishlab chiqilgan maqbul donadorlik tarkibi Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli korxonalarda amaliyotga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2023-yil 23-maydagi, 03-1427-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitida qoplama mustahkamligi ortishiga olib kelgan.

Ishlab chiqilgan slanesli tog' jinslaridan olingan faollashgan mineral kukun asfaltbeton qorishmasiga qo'llash uslubi Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli korxonalarda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2023-yil 23-maydagi, 03-1427-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yuqori haroratli ekspluatatsion sharoitda qoplamda plastik g'ildirak izi kelib chiqishi 70 °C qoplama haroratida 5 yilda 2,55 mm bo'lib, me'yoriy hujjatlarda keltirilgandan to'rt barobarga kamaygan, shuningdek ushbu uslubni qo'llash natijasida bog'lovchi bitum miqdorini 10.3 % gacha iqtisod qilishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro (jumladan 1 ta "Scopus" bazasiga kirgan konferensiyada) va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, ulardan 4 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan. Shuningdek, 1 ta EHM dasturi uchun mualliflik guvohnoma rasmiylashtirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 109 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, dissertatsiya tadqiqoti bajarilgan oliy-ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, e'lon qilinganligi va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Asfaltbeton qoplamalar mustahkamligini oshirish yo'llari, mineral kukunlardan foydalanish, ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish vazifalari tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida asfaltbeton qorishmalari turi va tarkibiga ko'ra ular ishlash sharoiti, mustahkamligi va fizik-mexanik ko'rsatkichlariga bo'yicha bir necha turlarga bo'linishi va asfaltbeton qorishmasi yirik va mayda to'ldiruvchi inert materiallar hamda bog'lovchi materiallarni qizdirish yo'li bilan tanlangan tarkib asosida tayyorlanishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Asfaltbeton qorishmalarini tayyorlashda ishlatiladigan mineral kukunlar ohaktosh, dolomit va boshqa karbonat jinslarni maydalab, kukunga aylantirish yo'li bilan olinadi. Mineral kukunlarning turi, tarkibi hamda materialidan kelib chiqib, asfaltbeton qoplama mustahkamligiga ta'siri bo'yicha juda ko'plab xorijiy davlatlar, MDH davlatlari hamda mahalliy ilmiy tadqiqotchi-olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan. Mineral kukunlar asfaltbeton qorishmalarining ishlash qobiliyati va mustahkamligini oshirishda muhim hisoblanadi. Har xil turdagi mineral kukunlar asfaltbeton qorishmalarining ishlashiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Asfaltbetonning xususiyatlari to'g'ridan-to'g'ri asfalt bog'lovchining turiga, yirik va mayda to'ldiruvchi inert materiallari tarkibiga hamda mineral kukunning tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Mineral kukunning tuzilishi maydalanish darajasiga, yuza shakliga va faolligiga bog'liq. Faollashgan mineral kukunlardan foydalanish asfaltbeton qoplamaning harorati 50 °C dan yuqori bo'lganda, uni mustahkamligini va yuqori haroratli ekspluatatsion sharoitda chidamliligini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitida qoplama mustahkamligini oshirishda mineral kukunning asfaltbeton qorishma xususiyatlariga ta'sirini tadqiq qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatimiz hududida aniqlangan slanesli tog' jinslarining turlari, mineral kukunning kimyoviy tarkibi, zarralar shakli, asfaltbetonning fizik-mexanik xususiyatlariga ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Mamlakatimiz hududida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 5 xil turdagi slanesli tog' jinslari aniqlangan. O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Nurobod tumani hududidagi slanesli tog' jinslaridan olingan faollashgan mineral kukun laboratoriya sharoitida sinovdan o'tkazilib, olingan natijalar GOST 16557-2005 “Порошок минеральный для асфальтобетонных и органоминеральных


смесяй” Т.У. ме’yoriy hujjati talablariga solishtirib ko‘rildi va faol mineral kukun talablariga mos kelishi aniqlandi. Sinov natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Ko‘rsatkich nomlari	O‘lchov birligi	Ko‘rsatkichlar qiymati		
		Me’yoriy qiymat	Olingan o‘rtacha qiymat	Me’yoriy hujjatga mosligi
Tabiiy namligi	%	0-1,0	0,8	-
Donadorlik tarkibi, mm	1,25	kamida 100	99,6	mos keladi
	0,315	kamida 90	91,7	mos keladi
	0,071	kamida 80	81,2	mos keladi
Zichligi	g/sm ³	me’yorlanmaydi	2,6	-
G‘ovakdorligi, kamida	%	30	28,9	mos keladi
Mineral kukun bilan bitum aralashmasi namunasining ko‘pchishi		1,8	1,6	mos keladi

Slanesli tog‘ jinslaridan olingan faollashgan mineral kukun sinov natijalariga ko‘ra asfaltbeton qorishmalarini ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan mineral kukunlar bo‘yicha qo‘yilgan talablarga mos keladi.


Asfaltbeton qorishmalarining sifati hamda mustahkamligiga mineral kukunlarning maydalik darajasi, zarralarining shakli ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli slanesli tog‘ jinslaridan olingan faollashgan mineral kukunlar, ohaktosh materiallaridan olingan mineral kukunlar hamda ozokerit materialidan olingan mineral kukunlar mikroskopik tahlildan o‘tkazildi. Slanesli tog‘ jinsidan olingan faollashgan mineral kukunning zarra o‘lchamlari bir-biriga yaqin ketma-ketlikda joylashgan. Buning afzalligi shundaki, qorishmadagi yirik va mayda to‘ldiruvchilar orasidagi to‘ldirilishi zarur bo‘lgan qismni ushbu mineral kukun bilan deyarli to‘liq egallashga imkon yaratadi. Mikroskopik tahlilda mineral kukunlarning donadorlik tarkibi, ignasimon va yapaloqsimon zarralar miqdori hamda shakli o‘rganildi. Olingan natijalar 1-rasmda keltirilgan.



A)



B)



C)

1-rasm. A), B), C) 3 hil turdagi mineral kukunning Motic VA 210 optik mikroskopida olingan zarralari ko‘rinishi

Slanesli tog‘ jinslaridan olingan faollashgan mineral kukun optik mikroskopik tahlil qilinganda, quyidagi o‘lchamdagi zarralardan tashkil topgani aniqlandi:

- L1- 67 mikron – 0.9%;
- L2- 44.1 mikron – 1.78%;
- L3- 17.0 mikron – 5.35 %;
- L4 – 27.5 mikron – 3.57 %;
- L5 – 21.0 mikron – 6.25%;
- L6- 5.0 dan 0.8 mikrongacha – 71.42%;
- L7- 12.0 mikron – 10.73%.

Ushbu mineral kukunning 96.35 % ni kubsimon shakldagi zarralar, 3.65 % miqdorini ignasimon va yapaloqsimon shakldagi zarralar tashkil etishi aniqlandi.

Yuqoridagi optik tahlil natijalariga asoslanib, 3 turdagi mineral kukunlar o‘zaro solishtirib chiqildi va quyidagi xulosaga kelindi:

Slanesli tog‘ jinsidan olingan faollashgan mineral kukun ohaktoshdan olingan mineral kukun va ozokeritdan olingan mineral kukunlarga nisbatan zarralarining kubsimonligi va tarkibida juda kam miqdorda ignasimon zarralar borligi bilan farqlandi. Dunyo tajribasiga hamda avval olib borilgan ilmiy ishlarga asosan mineral kukunning tarkibidagi kubsimon zarralarni miqdori asfaltbeton qorishmasining inert tosh materiali bilan bog‘lovchini birikishiga ta’sir etib, natijada mustahkamlikni oshirishga xizmat qiladi.

Mineral kukunlarning kimyoviy tarkibini o‘rganish jarayonida asfaltbeton qorishmalarini ishlab chiqarishda 20 % miqdorida alyumin miqdori ortib ketsa, bitum bilan yaxshi bog‘lanmasligini ko‘rishimiz mumkin. Shu sababli mineral kukun tarkibidagi alyumin miqdori bo‘yicha o‘lchov ishlari olib borildi. Defraktometr XRD-6100 yordamida olingan natijalar o‘rganilganda, slanesli tog‘ jinslaridan olingan faollashgan mineral kukun, ozokerit mineral kukun va ohaktosh mineral kukunlarda alyumin miqdori 20 foizdan kamligi aniqlandi. Bu o‘z navbatida, qoplama tarkibida bog‘lovchi bilan inert materiallarining o‘zaro bog‘lanishini ta’minlaydi.

Dissertatsiyaning “Yuqori haroratli ekspluatatsion sharoitga mos keluvchi slanesli tog‘ jinsidan olingan mineral kukun qo‘shilgan asfaltbetonning fizik-mexanik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish” deb nomlangan uchinchi bobida mayda donali issiq zich asfaltbeton qorishmalarini laboratoriya sharoitida 60 °C va 70 °C haroratda siqilishga hamda siljishga mustahkamligi ko‘rsatkichlarini o‘rganish natijalari keltirilgan.

Respublikamiz hududida yoz fasli oylarida havo harorati 45 - 50 °C gacha bo‘lgan vaqtlarda asfaltbeton qoplamalaridagi harorat 65 - 70 °C gacha ko‘tarilib ketishi kuzatiladi. Shu sababli mayda donali issiq zich asfaltbeton qorishmalarini laboratoriya sharoitida 60 °C va 70 °C haroratda siqilishga mustahkamligi hamda siljishga chidamliligi ko‘rsatkichlarini o‘lchash ishlari olib borildi va olingan natijalar 2-jadvalga kiritildi.

Maydalik darajasi bo‘yicha mineral kukunlar qo‘shilgan asfaltbetonning fizik-mexanik xossalari sinov natijalari asosida solishtirish

2-jadval

Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	Ko‘rsatkichlar qiymati				
		Me‘yoriy qiymat	Olingan o‘rtacha qiymat			
			1-tarkib	2-tarkib	3-tarkib	4-tarkib
O‘rtacha zichligi	g/sm ³	me‘yorlanmaydi	2,365	2,401	2,358	2,337
Siqilishga mustahkamligi	MPa					
20 °C da		2,5	4,13	4,57	4,25	4,40
50 °C da		1,2	1,24	1,39	1,23	1,28
60 °C da		GOST talabiga	1,13	1,17	1,00	1,02
70 °C da		muvofiq yuk	0,85	0,86	0,79	0,82
Suvga bardoshlilik, kamida		0,85	0,98	1,17	1,01	1,05
Tarkibidagi (bitum) bog‘lovchi miqdori	%	5-6,2	5,2	5,2	5,2	5,2
Suv shimuvchanligi	%	1,0-4,0	2,423	1,318	3,40	3,59
Siljishga mustahkamligi	MPa	0,81	0,81	0,84	0,81	0,81

Laboratoriya sharoitida slanesli tog‘ jinslari 0,071-0,00 mm gacha maydalandi. Ushbu o‘lchamdagi mineral kukun qo‘shilgan asfaltbeton qorishma fizik-mexanik xossalari bo‘yicha qolgan tarkiblarga nisbatan o‘rtacha zichligi, suvga bardoshlilik, 20 °C, 50 °C, 60 °C va 70 °C haroratda siqilishga hamda siljishga mustahkamligi ko‘rsatkichlari yuqoriligi va suv shimuvchanligining kamayishi bilan farq qilishi aniqlandi (2-rasm).

Mayda donali issiq zich asfaltbeton qorishmasiga slanesli tog‘ jinslaridan olingan faollashgan mineral kukunni qo‘shish orqali, laboratoriya sharoitida yuqori haroratda qorishma mustahkamligining bitum miqdoriga bog‘liq fizik-mexanik xossalari natijalari olindi va 3-jadvalda keltirib o‘tildi:


Slanesli tog'jinslaridan olingan faollashgan mineral kukun qo'shilgan asfaltbeton fizik-mexanik ko'rsatgichlarini bog'lovchi miqdoriga bog'liqligi.

3-jadval

Bog'lovchi miqdori, %	O'rtacha zichligi, g/sm ³	Suv shimuvchanligi, %	Suvga bardoshliligi	Siqilishga mustahkamligi 20 °C da, MPa	Siqilishga mustahkamligi 50 °C da, MPa	Siqilishga mustahkamligi 60 °C da, MPa	Siqilishga mustahkamligi 70 °C da, MPa	Siqilishga mustahkamligi, MPa
4,4	2,35	4,53	0,81	3,08	0,93	0,9	0,84	0,6
4,5	2,39	3,85	0,77	3,09	1,05	0,96	0,86	0,66
4,6	2,35	3,63	0,9	3,15	1,11	1,09	1,08	0,71
4,8	2,35	3,41	0,79	3,24	1,24	1,23	1,22	0,75
5	2,38	3,11	0,75	3,56	1,51	1,4	1,3	0,82
5,2	2,39	2,76	0,99	4,82	1,64	1,49	1,35	0,85
5,4	2,39	2,61	1,01	4,66	1,58	1,44	1,31	0,85
5,6	2,38	2,06	1,03	4,52	1,54	1,4	1,27	0,86
5,8	2,41	1,64	0,83	4,49	1,53	1,39	1,24	0,81
6	2,4	1,53	0,95	3,34	1,48	1,35	1,22	0,79
6,2	4,42	1,51	0,93	4,13	1,4	1,28	1,16	0,72
6,4	2,4	1,48	0,87	3,32	1,13	1,03	0,93	0,7

Laboratoriya sharoitida asfaltbeton qarishmasining fizik-mexanik xossalarini sinash natijalarini solishtirish grafigi 3-rasmda keltirilgan.

suv shimuvchanligi va siqilishga mustahkamligi harorat va bo'lovchi miqdorida o'zgarishi



2-rasm. Laboratoriya sharoitida asfaltbeton qarishmasining fizik-mexanik xossalarini bog'lovchi miqdori o'zgarishida sinash natijalari grafigi.

Mayda donali issiq zich asfaltbeton qorishmasi tarkibiga slanesli tog' jinslaridan olingan mineral kukun va 5,2-5,4% miqdorida bog'lovchi qo'shilganda, eng yuqori fizik-mexanik ko'rsatkichlarga erishiladi. Asfaltbeton qorishmasi tarkibida bog'lovchi miqdorining ortishi yuqori haroratda qoplamada surilishga chidamlilik va siqilishga mustahkamligi kamayishiga olib keladi.


Asfaltbetonning qovushqoqlik ko'rsatkichi qovushqoq-plastik xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuning uchun yoz faslida asfaltbetonning deformatsiyaga chidamliligi va past haroratlarda deformatsiyalanishi undagi qovushqoqlikning o'zgarishini fizik ko'rsatkichi yordamida muvozanati bilan baholanishi mumkin. Slanesli tog' jinslaridan olingan faollashgan mineral kukun qo'shilgan asfaltbeton qorishmasining surilishga chidamliligi va siqilishga mustahkamligini aniqlash maqsadida granitli chaqiqtoшни qo'llash orqali tadqiqotlar olib borildi. Bunda sinovlar laboratoriya sharoitida GOST12801 me'yoriy hujjati bo'yicha bajarildi.

4-jadval


Granit chaqiqtoş (Marka 1400) qo'shilgan asfaltbetonning surilishga chidamliligi va siqilishga mustahkamligining harorat o'zgarishi va tarkibiga qo'shilgan bog'lovchi miqdoriga bog'liq o'zgarishi

Namuna	surilishga mustahkamligi	siqilishga mustahkamligi		
	CD=1/6(3-tg@)*Rc	r	f	Rsj
20 °C haroratda				
5	1,18	17,06	40	4,27
5,2	1,27	17,84	40	4,46
5,4	1,22	17,97	40	4,49
5,6	1,23	16,05	40	4,01
50 °C haroratda				
5	0,99	7,67	40	1,92
5,2	1,06	7,75	40	1,94
5,4	1,12	7,83	40	1,96
5,6	0,94	6,02	40	1,51
60 °C haroratda				
5	0,83	5,62	40	1,41
5,2	0,82	5,79	40	1,45
5,4	0,78	5,8	40	1,45
5,6	0,77	5,73	40	1,43
70 °C haroratda				
5	0,79	4,99	40	1,25
5,2	0,80	5,35	40	1,34
5,4	0,76	5,26	40	1,32
5,6	0,62	4,41	40	1,10

Slanesli tog' jinslaridan olingan faollashgan mineral kukun qo'shilgan asfaltbeton qarishmasining sinov harorati va bitum miqdoriga bog'liq holda surulishga chidamliligi va siqilishga mustahkamligi bo'yicha sinovlar olib borildi. Sinov natijalari quyidagi grafikda aks ettirilgan.



3-rasm. 20 °C, 50 °C, 60 °C, 70 °C haroratda surulishga chidamliligi va siqilishga mustahkamligining harorat va bog'lovchi o'zgarishiga bog'liqligi



4-rasm. 20 °C, 50 °C, 60 °C, 70 °C, haroratda surulishga chidamliligi va siqilishga mustahkamligining harorat o'zgarishiga bog'liqligini solishtirish.

Yuqoridagi jadval va grafiklardan ko'rinadiki, asfaltbeton qorishmaning siqilishga mustahkamligi va surulishga chidamliligi ko'rsatkichlari harorat o'zgarishi va bog'lovchi miqdori bog'liq. Yuqori haroratda asfaltbeton qorishmaning siqilishga mustahkamligi va surulishga chidamliligi slanesli tog' jinslaridan olingan faollashgan mineral kukun qo'shilganda, bog'lovchi miqdori 5,2-5,4 % oralig'ida eng maqbul natijaga erishildi.

Dissertatsiyaning **“Yuqori haroratli ekspluatatsion sharoitda slanesli mineral kukun qo'shilgan asfaltbeton qorishmasi fizik-mexanik ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish”** deb nomlangan to'rtinchi bobida yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitida qoplamada g'ildirak izlari kelib chiqishini qorishmaning surulishga chidamliligi va siqilishga mustahkamligi ko'rsatkichlaridan kelib chiqishini prognozlash, iqtisodiy samaradorligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu ko'rsatkichlar GOST 12801-98 ga muvofiq belgilangan 3 mm/min deformatsiya darajasi bo'yicha siqilish paytida standart kuch ko'rsatkichlaridan foydalangan holda belgilanadi.

Qoplamadagi plastiklik koeffitsiyenti quyidagi formula orqali topiladi:

$$m = \frac{(\ln R_{50}^{50} - \ln R_{50}^3)}{(\ln 50 - \ln 3)} = \frac{(\ln R_{50}^{50} - \ln R_{50}^3)}{(\ln t_{t3} - \ln t_{t50})} \quad (1)$$

R_{50}^{50}, R_{50}^3 – 50 °C da siqilish paytida kuch ko'rsatkichlari ikki xil deformatsiya tezligida (mos ravishda 50 va 3 mm/min), MPa;

$\ln 50 - \ln 3$ – press porshenining erkin tushish tezligi 3 va 50 mm/min bo'lganda namunalarning buzilish vaqti.

$t_3, t_{50} - t_3, t_{50}$ – 3 va 50 mm / min, s. bo'lgandagi mustahkamlik chegarasi

Granit chaqiqtoş, qum, slanesli tog‘ jinslaridan olingan mineral kukun qo‘shilgan asfaltbeton qarishmasining plastiklik koeffitsiyenti qiymatlari 50 °C, 60 °C, 70 °C harorat uchun aniqlandi:

1) 50 °C haroratda plastiklik koeffitsiyenti

$$m = \frac{(\ln R_{50}^{50} - \ln R_{50}^3)}{(\ln 50 - \ln 3)} = \frac{(\ln 2.23 - \ln 1.94)}{(\ln 50 - \ln 3)} = \frac{(0.802 - 0.663)}{(3.92 - 1.099)} = 0.05$$

2) 60 °C haroratda plastiklik koeffitsiyenti

$$m = \frac{(\ln R_{60}^{50} - \ln R_{50}^3)}{(\ln 50 - \ln 3)} = \frac{(\ln 1.72 - \ln 1.45)}{(\ln 50 - \ln 3)} = \frac{(0.542 - 0.372)}{(3.92 - 1.099)} = 0.06$$

3) 70 °C haroratda plastiklik koeffitsiyenti

$$m = \frac{(\ln R_{70}^{50} - \ln R_{50}^3)}{(\ln 50 - \ln 3)} = \frac{(\ln 1.68 - \ln 1.34)}{(\ln 50 - \ln 3)} = \frac{(0.519 - 0.293)}{(3.92 - 1.099)} = 0.08$$

Dolomit chaqiqtoş, qum, slanesli tog‘ jinslaridan olingan mineral kukun qo‘shilgan asfaltbeton qarishmasining plastiklik koeffitsiyenti qiymatlari 50 °C, 60 °C, 70 °C harorat uchun aniqlandi:

1) 50 °C haroratda plastiklik koeffitsiyenti

$$m = \frac{(\ln R_{50}^{50} - \ln R_{50}^3)}{(\ln 50 - \ln 3)} = \frac{(\ln 2.05 - \ln 1.74)}{(\ln 50 - \ln 3)} = \frac{(0.718 - 0.554)}{(3.92 - 1.099)} = 0.06$$

2) 60 °C haroratda plastiklik koeffitsiyenti

$$m = \frac{(\ln R_{60}^{50} - \ln R_{50}^3)}{(\ln 50 - \ln 3)} = \frac{(\ln 1.69 - \ln 1.37)}{(\ln 50 - \ln 3)} = \frac{(0.525 - 0.315)}{(3.92 - 1.099)} = 0.07$$

3) 70 °C haroratda plastiklik koeffitsiyenti

$$m = \frac{(\ln R_{70}^{50} - \ln R_{50}^3)}{(\ln 50 - \ln 3)} = \frac{(\ln 1.58 - \ln 1.33)}{(\ln 50 - \ln 3)} = \frac{(0.457 - 0.285)}{(3.92 - 1.099)} = 0.07$$

Qovushqoq plastik buzilishning aktivlashadigan energiyasi U, (kJ/mol) 20 °C va 50 °C haroratlarda siqilishga mustahkamlik ko‘rsatgichlari asosida hisoblanadi:

$$U = \frac{26.254(\ln R_{20} - \ln R_{50})}{m} \quad (2)$$

bu yerda R_{20} , R_{50} – 20 °C va 50 °C haroratdagi siqilishga mustahkamligi, MPa.

Granit chaqiqtoş, qum, slanesli tog‘ jinslaridan olingan mineral kukun qo‘shilgan asfaltbeton qarishmasining siqilishga mustahkamlik qiymatlari 50 °C, 60 °C, 70 °C harorat uchun aniqlandi:

1) 50 °C haroratda siqilishga mustahkamlik

$$U = \frac{26.254(1.495 - 0.663)}{0.050} = 441.366$$

2) 60 °C haroratda siqilishga mustahkamlik

$$U = \frac{26.254(1.495 - 0.372)}{0.061} = 448.012$$

3) 70 °C haroratda siqilishga mustahkamlik

$$U = \frac{26.254(1.495 - 0.293)}{0.080} = 392.789$$

50 mm/min tezlikda siqish uchun balandligi 71,4 mm bo'lgan silindrsimon asfaltbeton namunalarini sinovdan o'tkazishda surilishga qarshilik gradienti quyidagilarga teng olinadi:

$$\gamma_d^I = \frac{1}{3} * \frac{50}{71.4} * \frac{1}{60} = 0.0039C^{-1}$$

Qoplamaning taxminiy xizmat muddati 5 yil yoki 5760 soat qiymatida rejalashtirilgan. Mashinalar g'ildiraklari bitta izdan yurishlar soni koeffitsiyenti 0,2 deb olingan.

Asfaltbeton qoplamasining maksimal haroratini aniqlashda asos qilib havo haroratining maksimal absolyut qiymati olinadi va uning ta'minlanganligi 1 ga teng. Yo'l qoplamasi yuzasidan 2 sm chuqurlikdagi asfaltbetonning maksimal hisobiy harorati 95% aniqlikda quyidagi emperik formula orqali aniqlanadi:

$$T_{n+} = -0.0306T_{max}^2 + 3.8071T_{max} - 39 \quad (3)$$

bu yerda T_{n+} – Asfaltbeton qoplamaning eng yuqori harorati, °C

T_{max} – yo'l iqlim mintaqasidagi havoning eng yuqori harorati, °C

$$T_{n+} = -0.0306 * 45.9^2 + 3.8071 * 45.9 - 39 = 71.3 \quad (4)$$

Minimal qoplama harorati O'zbekiston hududiga moslashtirilgan formula orqali hisoblandi:

$$T_{n-} = 0.859T_{min} + 1.7$$

bu yerda T_{n-} – 5 kunlik tashqi havo harorati, 0,98 °C gacha

$$T_{n-} = 0.859T_{min} + 1.7 = 0.859 * 35.9 + 1.7 = -29$$

Qoplama haroratini maksimal va minimal qiymatlar oralig'ida taqsimlash ehtimoli eng yaqin ob-havo stansiyasi ma'lumotlariga ko'ra, ma'lum bir hududdagi havo haroratini ko'p yillik kuzatishlar asosida aniqlanadi. Haroratning chastota taqsimoti ma'lum bir haroratda qoplama ishlash vaqtining asfaltbeton qoplamasi umumiy taxminiy xizmat qilish muddatiga nisbati bilan tavsiflanadi.

Meteorologik ma'lumotlar mavjud bo'lmaganda, trapetsiya shakliga mos tushadigan, maydoni 1 ga teng qoplama harorati taqsimotining empirik egrisiga amal qilish lozim. Matematik jihatdan bu bog'liqlik quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$P(T) = \frac{T - T_{n-} + 2}{12(T_{n+} - T_{n-} - 8)}$$

$$P(T) = \frac{1}{(T_{n+} - T_{n-} - 8)}$$

$$P(T) = \frac{1}{(T_{n+} - T_{n-} - 8)} - \frac{T - T_{n-} + 2}{12(T_{n+} - T_{n-} - 8)}$$

$$P(-15) = \frac{-15 - (-29) + 2}{12(71.3 - (-29) - 8)} = 0.01455$$

$$P(25) = \frac{1}{(71.3 - (-29) - 8)} = 0.01082$$

$$P(70) = \frac{1}{(71.3 - (-29) - 8)} - \frac{70 - (-29) + 2}{12(71.3 - (-29) - 8)} = 0.00296$$

Raqamli integratsiya formula bo'yicha qoplamaning maksimal va minimal loyiha harorati oralig'ida amalga oshiriladi, misol uchun, 60 ° C diskret qoplama harorati uchun plastik deformatsiyani hisoblash berilgan

$$\gamma = t_p \gamma_d \left[\frac{\tau_{max} - p \text{tg}\varphi}{c_d} \right]^{1/m} \exp \left[-\frac{U}{R} \left(\frac{1}{273.15+T} - \frac{1}{T_1} \right) \right] \quad (5)$$

bu yerda t_p – taxminiy yuk harakati vaqti, s ;

γ_d – asfaltbeton namunalarini laboratoriyada sinovdan o'tkazishda qaytarilmas surilishga chidamlilik gradiyenti, s⁻¹;

τ_{max} – maksimal kesish kuchlanishi, MPa;

p – hisoblangan yukning o'ziga xos bosimi, MPa;

$\text{tg}\varphi$ – asfaltbetonning ichki ishqalanish koeffitsiyenti;

c_d – asfaltbetonning ilashish ko'rsatkichi, MPa;

m – plastiklik koeffitsiyenti;

